



“IPAK YO‘LI BO‘YLAB YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH, BARQAROR TURIZMNI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA MADANIY MEROSNI SAQLASH” MAVZUSIDA XALQARO KONFERENSIYA

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 490-son “2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrugini ijrosini ta’minlash maqsadida 2025 yil 20-21 noyabr kunlari “Ipak yo‘li bo‘ylab yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, barqaror turizmni qo‘llab-quvvatlash va madaniy merosni saqlash” mavzusida xalqaro miqyosida konferensiya o‘tkaziladi

MUROJAAT UCHUN TELEFON:

+99890 606 19 00
(Safarov Bahodirhon)

Ushbu xalqaro anjuman 2025-yil 20–21-noyabr kunlari Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali o‘tkaziladi va quyidagi sho‘balar bo‘yicha ish olib boradi:

1. Barqaror turizmni rivojlantirish bo‘yicha muammolar;
2. Madaniy merosni saqlash bilan bog‘liq muammolar;
3. Iqlim o‘zgarishi va uning turizmga ta’siri;
4. Transmilliy hamkorlik va tajriba almashish bilan bog‘liq muammolar;
5. Ekologik barqarorlikni ta’minlashdagi muammolar;
6. Ta’lim va kadrlar tayyorlash bilan bog‘liq muammolar.

Konferensiyada 36 ta davlatdan, jumladan Indoneziya, Malayziya, Xitoy, Pokiston, Rossiya, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Italiya, Bosniya va Gersegovina, Fransiya, Portugaliya, Ruminiya va boshqa mamlakatlardan 100 dan ortiq yetakchi olimlar va mutaxassislar ishtirok etishlari kutilmoqda.

Mazkur konferensiyada ishtirok etishni istagan professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar hamda talabalar o‘z ilmiy izlanishlari natijasida tayyorlagan ilmiy maqolalari va tezislari yuqorida ko‘rsatilgan sho‘balar yo‘nalishlari bo‘yicha o‘zbek, rus va ingliz tillarida taqdim etishlari mumkin.

Konferensiya hay’ati tomonidan yuqoridagi mavzularga mos va talab darajasida rasmiylashtirilgan maqola/tezislar ko‘rib chiqiladi. Taqrizdan o‘tgan maqola/tezislar quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladi:

- konferensiyaga taqdim etilgan materiallar to‘plami elektron nashr etiladi hamda **Google Scholar** tizimlarida indekslanadi, raqamli ob’ekt identifikatori (DOI) beriladi.
- tanlab olingan maqolalar mualliflari roziligi bilan xalqaro impakt-faktorli jurnalga “Economics, Finance and Innovation” ilmiy jurnalida nashr etish uchun tavsiya etiladi.

Maqolalarni qabul qilish muddati: 2025-yil 15-noyabrgacha.

Maqolalar onlayn tarzda +99890 606-19-00 Telegram yoki safarob@rambler.ru elektron manzili orqali qabul qilinadi.

Konferensiya o‘tkazish joyi: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, Faollar zali.
Tashkiliy qo‘mita manzili: 140100 Samarqand, O‘zbekiston, Professorlar ko‘chasi, 51.
<https://sbtsue.uz/en>

TAQDIM ETILADIGAN TEZISLARNI RASMIYLASHTIRISHGA QO'YILGAN TALABLAR

Ilmiy tezis mavzusi (Title)

Tezis mavzusi imkon qadar qisqa va lo'nda ko'rinishda shakllantirilgan bo'lib, tezis tadqiqot yo'nalishini aniq ifoda etishi lozim. U o'zbek, rus hamda ingliz tillarida taqdim etilishi kerak.

Ilmiy tezis muallifi to'g'risida ma'lumot (Author information)

Ushbu qismda muallifning ismi-sharifi (otasining ismi bilan), ish joyi va lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, elektron pochta manzili va muloqot telefonlari kiritiladi.

Tezisning annotatsiyasi (Abstract)

Tezislarning qisqacha annotatsiyasi 6-8 qatordan oshmagan holda o'zbek, rus va ingliz tillarida beriladi. Unda tadqiqot muammosi, uning dolzarbligi, tadqiqot muammosini ochib berish uchun qo'llanilgan metodologiya, tadqiqot natijalari, maqolaning to'la mazmunidan kelib chiqqan holda muallifning ilmiy va amaliy hissasining qisqacha bayoni yoritiladi.

Tayanch iboralar (Key words)

Tayanch so'zlar tezis mazmuni va maqsadini eng qisqa mazmunda ochib beruvchi kalit so'zlar hisoblanadi. Scholar.google.com yoki google.com qidiruv tizimida tezis oson va eng birinchi sahifalarda topilishi uchun tayanch so'zlarning har biri asosiy matn tarkibida o'rtacha 5-6 marta takrorlanishi tavsiya etiladi.

Kirish

Asosiy qism

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

Ushbu qismda tadqiqotda foydalanilgan barcha adabiyotlarning ro'yxati [1], [2] yoki [3] ketma-ketligida:

- mualliflar ismi-sharifi, kitob nomi, nashr manzili nashriyot nomi, yili, betlari;
- mualliflar ismi-sharifi, maqola nomi, jurnal nomi, nashri, yili, soni, betlari.

Tezis matni

Matn "Times New Roman" shriftida, 14 kegelda bo'lib, qatorlar oraliqlari masofasi 1,5 intervalda bo'lishi lozim. Maqola matni sahifasining barcha (o'ng, chap, yuqori va quyi) tomonidan 2 santimetrdan iborat masofa qoldiriladi. Tezisning maksimal hajmi 6 betdan oshmasligi, minimal hajmi esa 3 betdan kam bo'lmasligi hamda foydalanilgan adabiyotlar soni kamida 4-6 manbadan iborat bo'lishi lozim.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada ishtirok etish uchun ariza shakli

Ishtirokchining to'liq ismi (ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, lavozimi)	
Tashkilotning to'liq nomi (tashkilot ustaviga muvofiq)	
Tashkilotning qisqa (rasmiy) nomi (tashkilot ustaviga muvofiq)	
Konferensiya sho'basi	
Maqola nomi	
Ishtirok etish shakli (an'anaviy/masofaviy)	
Telefon raqam	
Elektron pochta manzili	

ILMIY MAQOLALAR VA TEZISLAR UCHUN TO'LOVLAR

Tezis uchun tashkiliy badal: 120 000 so'm (GoogleScholar bazasida indekslash, tahrir ishlari, DOI raqam). Qabul qilingan maqola va tezislar to'lovini amalga oshirish bo'yicha bog'lanishadi.